



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

MUHAMMAD ALIXON G'AZALIYOTIDA RADIF VA UNING POETIK VAZIFALARI

Ne'matullayeva Marjona Hikmatulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo'qon xonligi hukmdori va iste'dodli shoir Muhammad Alixon lirikasida radifning qo'llanish xususiyatlari, uning she'riy mazmunni shakllantirishdagi o'rni hamda badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Mumtoz poetika manbalari va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar asosida radifning mohiyati yoritilib, Muhammad Alixon g'azallarida uning mazmuniy va uslubiy imkoniyatlari ochib beriladi. Shoirning radif tanlashdagi mahorati, takror vositasida she'riy ta'sirchanlikni kuchaytirish usullari, radifning lirik kechinmalarni ifodalash hamda badiiy g'oyani yoritishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, Muhammad Alixon ijodida an'anaviy poetik tamoyillar va individual uslub uyg'unligi masalasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Alixon, Qo'qon adabiy muhiti, radif, g'azal, mumtoz she'riyat, poetika, badiiy mahorat, qofiya, lirika, poetik uslub.

РАДИФ В ГАЗЕЛЯХ МУХАММАДА АЛИХАНА И ЕГО ПОЭТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ

Ньёматуллаева Маржона Хикматулла кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются особенности использования ради́фа в лирике Мухаммад Алихана, правителя Кокандского ханства и талантливого поэта, его роль в формировании поэтического содержания, а также художественно-эстетические функции. На основе классических источников по поэтике и современных литературоведческих концепций раскрывается сущность ради́фа, а также его содержательные и стилистические возможности в газелях Мухаммад Алихана. Особое внимание уделяется мастерству поэта в выборе ради́фа, способам усиления художественной выразительности посредством повтора, а также роли ради́фа в передаче лирических переживаний и раскрытии художественного замысла. Кроме того, рассматривается проблема гармоничного сочетания традиционных поэтических принципов и индивидуального стиля поэта.

Ключевые слова: Мухаммад Алихан, кокандская литературная среда, ради́ф, газель, классическая поэзия, поэтика, художественное мастерство, рифма, лирика, поэтический стиль.

THE RADIF IN MUHAMMAD ALIKHAN'S GHAZALS AND ITS POETIC FUNCTIONS

Ne'matullayeva Marjona Hikmatulla qizi

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the characteristics of the use of radif in the lyric poetry of Muhammad Alikhan, the ruler of the Kokand Khanate and a talented poet, its role in shaping poetic meaning, and its artistic and aesthetic functions. Based on classical sources of poetics and modern literary theories, the study elucidates the essence of radif and reveals its semantic and stylistic potential in Muhammad Alikhan's ghazals. Particular attention is paid to the poet's mastery in selecting radifs, his use of repetition to enhance poetic expressiveness, and the role of radif in conveying lyrical emotions and artistic ideas. The article also examines the harmonious integration of traditional poetic principles and the poet's individual style.

Keywords: Muhammad Alikhan, Kokand literary milieu, radif, ghazal, classical poetry, poetics, artistic mastery, rhyme, lyric poetry, poetic style.

Mumtoz turkiy she'riyat poetikasida radif she'ning badiiy mukammalligini ta'minlovchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. U misra yoki baytlar oxirida aynan takrorlanib kelishi orqali nafaqat she'ning musiqiyiligini kuchaytiradi, balki asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi. Sharq poetik tafakkurida radif azaldan ijodkor mahoratini namoyon etuvchi vosita sifatida baholanib, uning nazariy asoslari Rashiddin Vatvot, Nosiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning poetik risolalarida yoritilgan. Radif arabcha **"izma-iz keluvchi"** ma'nosini bildiradi. Adabiyotshunoslikda qofiyadan so'ng kelib, aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'zlar birikmasidir [4:236].

O'zbek mumtoz adabiyotida radifning badiiy imkoniyatlari Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy, Nodira, Uvaysiy singari ijodkorlar merosida yorqin namoyon bo'lgan. XIX asr Qo'qon adabiy muhitining faol vakillaridan biri bo'lgan Muhammad Alixon ijodida ham radif she'riy mazmunni tashkil etuvchi muhim poetik unsur sifatida qo'llanilgan. Shoir g'azallarida radiflar lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ifodalash, ishqiy va tasavvufiy mazmunlarni ta'kidlash, she'ning hissiy ta'sir kuchini oshirish vazifalarini bajaradi. Muhammad Alixon lirikasida radiflarning qo'llanishi faqatgina shakli hodisa bo'lib qolmay, balki shoirning poetik tafakkuri va badiiy mahoratini namoyon etuvchi vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Takroriy birliklar orqali muallif muayyan g'oyani markazlashtiradi, o'quvchi e'tiborini asosiy mazmunga qaratadi hamda poetik nutqning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mumtoz poetika manbalarida radif nazariyasi turli jihatlaridan izohlangan. Xususan, Rashiddin Vatvotning **“Hadoyiq us-sehr”** asarida radif fors she'riyatiga xos badiiy unsur sifatida baholanib, uni muvaffaqiyatli tanlash shoirning ijodiy mahorati bilan bog'lanadi [16]. Radif arabcha **“izma-iz keluvchi”** ma'nosini bildiradi. Adabiyotshunoslikda qofiyadan so'ng kelib, aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'zlar birikmasidir [4:236]. Nosiriddin Tusiyning **“Me'yor ul-ash'or”** risolasida radif qofiya tizimi tarkibidagi unsurlardan biri sifatida talqin qilinadi. Shams Qays Roziy **“Al-mo'jam”** asarida qofiya va radif o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirib, radifning she'riy mazmun bilan uyg'un holda qo'llanishi zarurligini ta'kidlaydi. Atoulloh Husayniyning **“Risolayi dar qavoyidi ilmi qavofi”** risolasida radif nazariyasi kengroq yoritilib, uning qo'llanishi she'r uchun majburiy emasligi qayd etiladi. Abdurahmon Jomiy **“Risolayi qofiya”** asarida radifni barcha baytlar oxirida bir xil shaklda takrorlanib keladigan so'z yoki ibora sifatida izohlaydi. Husayn Voiz Koshifiy **“Badoye' ul-afkor”** asarida radif **MUHOMA VA NATIJALAR**

Muhammad Alixon lirikasidagi radiflarning o'rganilishi nafaqat shoir ijodining poetik xususiyatlarini aniqlash, balki Qo'qon adabiy muhitida mumtoz she'riyat an'analarning davomiyligi va taraqqiyotini yoritishda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Muhammad Alixon g'azallarida bir so'zli radiflar alohida o'rin egallaydi. Bunday radiflar she'ning markaziy g'oyasini har bir baytda qayta ta'kidlab boradi. Natijada o'quvchi e'tibori muayyan poetik mazmunga yo'naltiriladi va g'azalning hissiy ta'sir kuchi ortadi. Shoir ayrim hollarda radifni bayt mazmunining tayanch nuqtasiga aylantirib, har bir misrada yangi ma'no qirralarini ochishga erishadi.

Ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan radiflar Muhammad Alixon lirikasida badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday radiflar she'rda kuchli ta'kid, hissiy jo'shqinlik va poetik yaxlitlikni yuzaga keltiradi. Murakkab radiflarning qo'llanishi shoirning so'z tanlashdagi nozik didi hamda poetik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, murojaat, nida va hukm mazmunini ifodalovchi radiflar g'azallarning emotsional ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Muhammad Alixon g'azallarida radif qo'llanilishiga doir misollar:

Bir so'zli radiflar:

“Ey muanbar zulfi savdosi, qilan shaydo bani,
Anbarin holi hayoli aylan rasvo bani” [20:140]
“Ashkimning sayyorasi, mehri jamoling sadqasi,
Ul munavvar mehr uza, mushkin hiloling sadqasi” [20:141]

Ikki so'zli radiflar:

“Vahki, bir sho'xi sitamgar yora oshiq bo'lmisham,
G'amzasi qotil, ko'zi xunxora oshiq bo'lmisham” [20:102]
“Javhari jon la'li guharboring aylar orzu,
Guhari ashkimdur shahvoring aylar orzu” [20:130].

Muhammad Alixon radiflarni qo'llashda o'zidan oldingi mumtoz ijodkorlar tajribasidan samarali foydalangan. Xususan, Alisher Navoiy va Amiriy g'azaliyotida uchraydigan poetik an'analarning uning ijodida ham davom ettirilgan [20:29]. Muhammad Alixonning Fuzuliy ijodiga o'zgacha nazar bilan qaraganligi uning ijodida ham yaqqol ifodasini topgan:

Muhammad Fuzuliyning:

“Ko'nglum ochilur zulfi parishoningni ko'rgach,
Nutqim tutulur g'unchai xandoningni ko'rgach”
deya boshlanuvchi g'azaliga Madalixon shunday nazira bog'lagan:
“Ko'ksun dilinur novaki mujgoningni ko'rgach,
Ko'nglum ochilur g'unchai xandoningni ko'rgach” [20:35]

Baytdagi ayrim so'zlarga izohlar:

Ko'ksun – ko'krak, qalb.

Dilinur – tilinadi, yirtiladi, yaralanadi.

Novak – kamon o‘qi, mayda o‘q.

Mujgon – kipriklar.

Novaki mujgon – kipriklar o‘qi (oshiqning qalbini yaralovchi kipriklar o‘qqa o‘xshatilyapti).

G‘unchai xandon – ochilgan g‘uncha, kulib turgan g‘uncha, yorning tabassum qilayotgan lablariga ishora.

Baytning nasriy bayoni quyidagicha:

Kipriklarning o‘qini ko‘rganimda mening ko‘ksim-u qalbim pora-pora bo‘lib tilinadi. Ammo sening ochilgan g‘unchaga o‘xshash kulib turgan lablaringni, ya‘ni tabassumingni ko‘rishim bilan quvonchdan qalbim ochilib, yayraydi. Shoirning ushbu g‘azali 5 baytdan tashkil topgan bo‘lib, ishq mavzusida yozilgan, ma‘shuqaning ta‘rif-tavsifiga bag‘ishlangan. Biroq shoir mavjud an‘analarni takrorlash bilan cheklanib qolmay, ularga yangi mazmun va badiiy talqin yuklashga intilgan. Shu jihatdan Muhammad Alixon lirikasida radif an‘anaviylik va individual uslub uyg‘unligini ta‘minlovchi muhim poetik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir ijodida radiflarning semantik vazifasi ham alohida ahamiyatga ega. Ular g‘azalning asosiy g‘oyasini umumlashtirish, muallifning estetik qarashlarini ifodalash hamda lirik qahramon ruhiyatidagi kechinmalarni chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Takroriy birliklar vositasida she‘rning ichki ritmi va emotsional dinamikasi shakllanib, poetik nutqning ta‘sirchanligi kuchayadi.

Demak, Muhammad Alixon lirikasida radif she‘rning shakliy unsuri bo‘lish bilan birga, uning mazmuniy va badiiy tizimini belgilovchi muhim poetik vosita hisoblanadi. Shoirning radif qo‘llashdagi mahorati uning mumtoz adabiy an‘analarni chuqur o‘zlashtirganini hamda ulardan ijodiy foydalanib, o‘ziga xos poetik uslub yaratganini ko‘rsatadi. Shu bois Muhammad Alixon g‘azallaridagi radiflarni o‘rganish shoir poetikasini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Alixon lirikasida radif she‘rning badiiy mukammalligini ta‘minlovchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir radiflardan foydalanish orqali g‘azalning mazmuniy yaxlitligini ta‘minlagan, lirik qahramon kechinmalarini ta‘sirchan ifodalagan hamda poetik nutqning musiqiylikni kuchaytirgan. Radiflarning turli shakllarda qo‘llanishi Muhammad Alixonning badiiy mahoratini, mumtoz an‘analarga sodiqligini va individual ijodiy uslubini namoyon etadi. Shuningdek, radiflar shoir g‘azallarida poetik fikrni markazlashtirish, hissiy ta‘sir kuchini oshirish va estetik mukammallikni ta‘minlash vazifalarini bajaradi. Muhammad Alixon g‘azallarida bir so‘zli va murakkab radiflarning qo‘llanishi shoirning badiiy tafakkuri va so‘z san‘atidagi mahoratini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, radiflarning har bir baytda takrorlanib kelishi orqali muayyan poetik g‘oya izchil rivojlantiriladi, lirik qahramonning ruhiy holati, ishqiy iztiroblari, hijron va visol bilan bog‘liq kechinmalari yanada ta‘sirchan ifodalanadi. Natijada radif she‘rning nafaqat shakliy, balki mazmuniy-estetik qatlamida ham faol ishtirok etuvchi poetik unsur darajasiga ko‘tariladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Muhammad Alixon radif tanlash va uni badiiy maqsadga muvofiq qo‘llashda mumtoz adabiyotning boy an‘analariga tayangan. Shoir ijodida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Amiriy kabi mumtoz so‘z san‘atkorlari tajribasining davomiyligi kuzatiladi. Biroq u mavjud poetik an‘analarni shunchaki takrorlash bilan cheklanmay, ularga yangi mazmun va individual badiiy talqin yuklashga muvaffaq bo‘lgan. Shu bois radif Muhammad Alixon she‘riyatida an‘anaviylik va individuallikni uyg‘unlashtiruvchi muhim poetik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Muhammad Alixon she‘riyatida radiflarning o‘rni va funksiyalarini tadqiq etish mumtoz o‘zbek adabiyoti poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. I tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 656 b.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. II tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 644 b.
3. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. III tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 624 b.
4. Xojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Badoye ul-afkor. – Moskva: Nauka, 1977.
6. Hamroyeva O. Alisher Navoiy qit‘alarining qofiya tizimi // Alisher Navoiy va XXI asr. – B. 602.
7. Hamroyeva O. “Debocha”dagi saj‘ning poetik vazifasi // Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni. – B. 187.
8. Avji Y., Hamroyeva O.J. DEVONU LUG‘OTIT TURK tarkibidagi parchalarning matniy tadqiqi: tizimlashtirish natijalari (Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi asosida) // Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar. – 2025. – T. 2. – № 20. – B. 65–73.
9. Orzigul H. Bobur ruboiylarida vazn va qofiya uyg‘unligi // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni. – 2023. – T. 1. – № 1.
10. Hamroyeva O.J. The History and Sources of Eastern Rhyme Studies // SSRN. – Available at SSRN:

5245317.

- 11.Hamroyeva O. “Debocha”dagi saj’ning poetik vazifasi // Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni. – B. 187.
- 12.Hamroyeva O. Alisher Navoiy qit’alarining qofiya tizimi // Alisher Navoiy va XXI asr. – B. 602.
- 13.Hamroyeva O. “Navoiyning forsiy shoirligi...” xususida // Alisher Navoiy and 21st Century. – 2024. – T. 1. – № 1.
- 14.Ibrohim Haqqul. Zanjirband she’r qoshida. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.
- 15.Rahmonov V. She’r san’atlari. – Toshkent: Sharq, 2020.
- 16.Rashididdin Vatvot. Hadoiq us-sehr fi daqiq ash-she’r. – Dushanbe: Irfon, 1987.
- 17.Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob: Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
- 18.Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog’a / Nashrga tayyorlovchi A. Hayitmetov. – Toshkent: Xazina, 1996.
- 19.Said Muhammad Alixon. Devon / Otabek Jo‘raboyev. – Toshkent: Tamaddun, 2024. – B. 20.